

## NE'MAT ARSLON ASARLARIDA RAMZIY TIMSOLLAR

**Shermatova Gulnora Ikrom qizi**

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti

O'zbek tili va adabiyoti fakulteti 2-bosqich talabasi

[gulnoraikrom@gmail.com](mailto:gulnoraikrom@gmail.com)

### Annotation.

In this article, the symbolic symbols in the works of the Uzbek writer Nemat Arslan are revealed through various analyzes. In particular, the concept of modern literature today is considered to be the pursuit of innovation, the creation of unusual methods and plots. This also leads to a different depiction of emotional experiences.

### Keywords:

Uzbek literature, Nemat Arslan, stories, analysis.

Bugun o'zbek adabiyotida modern tushunchasi paydo bo'lishi ham mutolaa etuvchilarning yangilikka intilishlari, har davrga mos asar kutishlari natijasi bo'lsa kerak. XX asr boshida Cho'lpon "bir xil...bir xil...ko'ngil yangilik qidiradi" deganda adabiyotdagi yangilikka bo'lgan intilishni ko'zda tutgan bo'lsa ehtimol. [1. Cho'lpon. "Adabiyot nadir?" T. 1994].

Yangicha qarash, yangicha fikrlash davrida yangilangan badiiyadabiyotimizga Erkin A'zamning "Stupka", Xurshid Do'stmuhammadning "Qichqiriq", Nazar Eshonqulning "Bahouddinning iti", Rahimjon Rahmatning "Adashvoy", Isajon Sultonning "Suvdagi ko'sa", Ulug'bek Hamdamning "Bir piyola suv", shuningdek, Ne'mat Arslonning "Qulfbuzar", "Oy jodusi", "Bir yigitning hayoti yoki kuyning tug'ilishi" [2. [www.Xurshid](http://www.Xurshid) Davron kutubxonasi] kabi hikoya va novellalari paydo bo'la boshladi. "Ma'noning salmoqdorligi va chuqurligi, so'zning aniq va muhimligi asarning qimmatini belgilaydi"-deydi akademik M. Qo'shjonov. [3. Mohiyat va badiiyat. 17-bet]

Ijodkor qo'lidan yaralgan asar o'z-o'zidan dunyo yuzini ko'rmaydi. Minglab insonlar qiynayotgan alamni, achchiq xotiralarni, dunyo biz ko'rib turgandek emas, aslida biz bilmagan, anglamagan sirlarni o'zida yashirganini bir kitob, mayli bir satrda, bir so'zda tasvirlash, insonni chinakam tushunish iste'dodi. Muallif adabiyotning qaysi janrida ijod etmasin, har bir obraz, har bir personaj, har bir detalda nimadir deyishga, mutolaa etuvchiga nimanidir yetkazishga intiladi. Gegel aytganidek "San'at – obrazlar orqali fikrlash"dir. [4. Gegel. Estetika. ]

Ne'mat Arslon ijodida esa nafaqat obrazlar orqali adib o'z mushohadalarini ifoda qiladi, balki o'qiguvchini ham o'ylashga majbur etadi. Birgina "Qulfbuzar" novellasiga nazar tashlasak, yozuvchi ko'p detal yoki personajdan foydalanmasa-da, ramziy obrazlar orqali o'z fikrini bayon eta olgan. [5. [www.Xurshid](http://www.Xurshid) Davron kutubxonasi, Ne'mat Arslon hikoyalari]. Bilamizki, novella janri syujet va kompozitsiyasining aniq va qat'iyligi, voqealarning kutilmagan va hayratomuzligi, ramziy unsurlarning mavjudligi bilan boshqa janrlardan farq qiladi. Asar nomidan ma'lumki, syujeti va sterjeni bevosita qulfbuzar va qulflar bilan bog'liq. Asarning ekspozitsiya qismida muallif o'z-o'ziga savol berib, fikrlashga undaydi. "Masalan, o'g'ri-qulfbuzar qanday shaxs? U biror-bir boyvachchaning uyiga o'g'irlikka tushish uchun nechog'li tayyorgarlik ko'radi? Bu paytda uning ruhiyatidan nimalar kechadi? Aslini olganda, qulflarning tobora va kun sayin takomillashib borishi va yangidan yangi minglab sinoatga ega bo'lgan qulflar yaratilayotganligi ham inson ongining va qo'l hunarining mahsuli. Ixtirochi yangi qulflar yaratish ustida o'ylarkan, albatta qulfbuzarni nazarda tutadi, uni ko'z

o'ngidan qochirmaslikka harakat qiladi. Qulf ichiga murakkab mexanizmlarni joylash jarayonida "Qani, mana bunisini ham ochib ko'r-chi", deb o'z ixtirosining sinoatlaridan mamnun jilmayadi. "Bechora qulfbuzar", deb hatto zaharxanda qilib qo'yadi. Shuning uchun ham men bu tipdagi kishilarning hayotini va ixtirolarini sinchiklab o'rganaman. Bu – hayot taqozosi. Qulflar esa...". Qulfbuzarlar aslida aqlli shaxslar, chunki yuqorida aytilganidek qulfsoz: "Qani, mana bunisini ham ochib ko'r-chi", deb har gal murakkabroq sistemaga ega qulf yasaydi, "o'g'ri-qulfbuzarlar" esa mexanizmlarni sinchiklab o'rganib, ochishadi. Bizga hikoya qilinayotgan asosiy personaj asar boshida keltirilganidek "Aslida uning kasb-u kori olimlar-u kashfiyotchilarning fan-texnika sohasidagi ixtirolari bilan bog'liq. Xususan, faylasuflardan qo'rqulik." ([www.XurshidDavron.uz](http://www.XurshidDavron.uz).)

So'zning imkoniyatlari juda keng. Uni maqsadga xizmat qildirish esa ijodkor dunyoqarashiga, mahoratiga bog'liq. Qo'lga qalam olgan rassomdek teran nigoh ila ko'rish qobiliyatiga ega adib ko'rganlarini shunday qog'ozga tushirishga harakat etadiki, kitobxonni voqeaga ishontirib, ko'z o'ngida voqealarni gavdalantira oladi. Ushbu novellada Tirkash ismli qulfbuzar asosiy personaj hisoblanadi. Aslida asarda aytilganidek qulfni buzmasdan uyga kirsa bo'lardi, ammo, qulfni qanday yasalganiga, uni o'z qo'li bilan ochishga qiziqadi. Shu o'rinda muallif qulf va ayolni qiyoslaydi va metaforaning ajoyib namunasini yaratadi. "...insonlar o'rtasida tushunish biroz murakkab bo'lgan g'alati bir ruhiy holat bor: erkak zotiga qiyo ham boqmaydigan va o'zining beqiyos jozibasiga ortiq darajada ishongan ayolni qo'lga olish uchun ba'zi bir kishilar bor ilm-u amallarini ishga soladilar va agar uning muhabbatiga sazovor bo'lsalar, o'zlarini dunyodagi bor erkak zotining kulangiri deb biladilar. Hech kim egar urolmagan asov otni jilovlagan chavandozda ham shunga o'xshash holatni kuzatish mumkin. Tirkashni tushunish uchun qilingan bunday muqoyasa balki nojoizdir, faqat qariyb bolalik paytlaridan boshlab butun umr qulflarga qiziqib, ularni bo'ysindirish, inson qo'li va aqlining nimalarga qodirligini namoyish etish unga beqiyos zavq bag'ishlab kelgan va hayotining mazmuniga aylanib qolgan. "Insoning qiziqishlari, istaklari cheksiz, Tirkash esa qulflarga qiziqdi. Tirkashga hamma xonalar ochiq, lekin u bir tup shaftoli qulflanganidan hayratlanadi. Insoniyat doim o'ziga notanish, noma'lum sirlarni bilishga urunadi. Asarda aytilganidek, bu u uchun sevimli kasb edi. Shu sababmi muqaddas atalgan oilasi ham navbatdagi "bir yuz sakson tilsimga ega" Skrinka qulfi sabab zavol topadi. Adib personaj xarakteristikasiga tavsif berar ekan, uning san'atga qiziqishini alohida ko'rsatib o'tadi.

"Mudroq ichida devordagi suvratlarga qaradi. Faylasuflar, yozuvchilar... Rassomlar: Van Gog, P.Sezann, rangning tiniqligi va ohangdorligi uchun kurash. Postimpressionizm. Shu qatorda Ro'zi Chorievning avtoportreti. Tirkash rassomchilikka qiziqib, san'at kollejida va keyinchalik institutda o'qib yurgan kezlari bu rassom bilan yaqindan tanishgan, o'qishdan haydalganidan keyin ham rassomning ustaxonasida ma'lum bir muddat istiqomat qilib turgan edi". Balki u mashhur rassom bo'lishi mumkin edi, lekin bu hozir mutlaqo boshqa shaxs – qulfbuzar. "Inson toki maqsadiga erishgunga qadar o'lib-tirilib, butun kuchini, tajribasini, makr-u hiylasini ham ishga solib harakat qiladi-yu, murodi hosil bo'lgandan so'ng o'sha narsani buzuq qulfdek otib yuboradi". Bu ramziylik ortida hamma davrlarda bo'lganidek, odamlarga maqsadlari yo'lida bir kalit bo'lib xizmat qilagan inson, ular yo'llaridagi to'siqlar-qulflarni ochilgan zahoti shu yo'lni bosib o'tishdagi yelkadoshni, sababchini butunlay unutishlari tasvirlangan. Yozuvchi uy egasining siri ya'ni, "Bir tup shaftoli"ni mutolaa etuvchi tasavvurida muhrlash uchun qisqacha tavsif beradi: Yam-yashil uzunchoq barglar, qizarib pisha boshlagan mevalar, g'adir-budir tana, shoxlar va novdalar... Tanasi u qadar yo'g'on ham emas. Bor-yo'gi o'n besh yil atrofida umr ko'radigan bu daraxt – tanasining o'lchamiga va shox-shabbalarining hali qoraqo'tir po'stloq bilan qoplanib ulgurmaganiga qaraganda – nari borsa, yetti-sakkiz bahorni ko'rgan. Ammo uning tanasidagi

qulf o'zi aytganidek "niqob" edi. Uydagi asl san'at asarlaridan ko'ra shaftolidagi sirni, xazinani izlaydi. Hayolida beihthiyor aylangan:

Bulbulning ko'ziday bir dona gavhar –  
Poda-poda ho'kizlar galasiga teng".

Satrlardan bo'ylik ko'zlariga parda tortgani ayon bo'ladi.

Tirkash nihoyat qulfni ochdi, lekin u qidirgan bo'ylik yo'q edi, u bu safar qattiq yangilishdi. Shaftolidagi qulflar uni bu safar mavh etdi.

Asardagi har bitta nom ortida tirik odam turadi. Rostki, kitobga bir odamni olib kirdingmi, unga jon ato qilishing kerak. Yozuvchilikning eng qiyin joyi shunda. Ko'p yozuvchilarimiz shunda oqsashadi. Kitobda "qahramon" bor, qiladigan ishining tayini yo'q. Oti bor-u, o'zi yo'q. Taqdiri yo'q"? – degan edi Abdulla Qahhor adabiyotdagi obrazlar haqida.[4. Abdulla Qahhor ] Ne'mat Arslonning "Bir yigitning hayoti yoki kuyning tug'ilishi" novellasida ishtirok etgan Alqambar, do'sti Adham, bobosi Yusuf Faryodiy, kuyning yaralishiga sababchi Fotima bonu obrazlari aslida badiiy to'qima yoki ismlari o'zgartirilgan bo'lishi mumkin. Lekin har bitta obraz butun hikoya davomida nimaningdir timsoli, ular o'z-o'zidan tanlanmaganiga guvoh bo'lamiz. Xususan, asarning bosh obrazi – Alqambar, ushbu so'zning ma'nosiga nazar tashlasak: 1) Turkiston xalqlari ijodida (o'zbeklarda – Allqambar yoki Qambar ota, turkman va qirg'izlarda – Bobo Qambar, tojiklarda – Qambar yoki Boboyi Qambar) chaqmoq va momaqaldir oq chaqiruvchi afsonaviy shaxs, baxshi va sozandalar "piri", shuningdek musiqa asboblari (masalan, dutor)ning afsonaviy ixtirochisi. O'zbek va tojik musiqa folklorida ko'pgina yomg'ir chaqirish marosim qo'shiqlari (masalan, "qambar bo'ziy") A. nomi bilan bog'liq. Xorazm afsonalarida A. xalifa Alinkig otboqari va otboqarlar "piri". Beruniy yozgan qadimiy turkiy xalqlar mavsumiy bayrami – "gahanbar" talaffuzning o'zgarishi natijasida A.ga aylangan degan ba'zi mulohazalar ham mavjud; 2) o'zbek xalq kuyi. Vazmin lirik raqs, usul jihatidan ufar yo'llariga yaqin. Ohanglari xorazm yirik ashula yo'llari (Feruz, Suvoralari), doston va maqomlarida cholg'u naqarotlari sifatida, shuningdek ayrim o'zbek bastakor va kompozitorlari asarlarida ishlatilgan.[6. [www.kh-davron.uz](http://www.kh-davron.uz). F. Karomatov "Maqom haqida"] Demak, asarda tilga olingan shaxs tarixiy ahamiyatga ega, musiqa san'ati asoschilaridan hisoblangan ekan. Ushbu asar qahramoni muallif tomonidan prototip asosida yaratilgan badiiy obraz hisoblanadi. Ya'ni Allqambar obrazi tarixda mavjud bo'lgan shaxs. Bundan tashqari asar voqealari novellada keltirilgan "Dorut-tilovat" madrasasi hujrasi tilga olinganidan bu joy Qashqadaryo viloyatiga to'g'ri keladi. Manbalarga ko'ra, "Dorut-Tilovat (Qur'on o'qiladigan, tilovat qilinadigan joy) — Shahrisabz markazida Dorussiyodat majmuasi g'arbida temuriylar xonadoniga mansub qadimiy inshootlar — Shamsiddin kulol maqbarasi, Gumbazi Sayyidon va Madrasa o'rnida barpo etilgan Ko'k gumbaz masjididan iborat majmua joylashgan". [7. [www.uz.vikipediya.org](http://www.uz.vikipediya.org). ]

Asar "Ichingizda biror kuyni, to'g'rirog'i, eng sevgan kuyingizni xirgoyi qilaturib daraxtga qaraganmisiz yo. Keling, bir shunday qilib ko'ring, juda qiziq holatni kashf etasiz. Mushtaraklik! Inson qalbi bilan daraxt vujudi o'rtasidagi hamdardlik. Shoxlar, novdalar va yaproqlar o'sha siz kuylayotgan musiqaga monand tebranadi. Hatto qilt etgan shabada yo'q pallada ham kishi bu mushtaraklikni ilg'ashi mumkin. Aslida yorug' dunyoda hamma narsa titrab turadi: hatto g'ishtlar, uylar, tog'lar ham. Ammo ularning hech biri daraxtlarchalik inson dilini zabt etgan ohanglarga esh bo'lolmaydi", degan satrlar bilan boshlanadi. Muallif daraxt va inson o'rtasida kuy vositasida hamohanglik borligini go'zal tasvirlaydi. Inson va tabiatning bir qismi daraxtlarda o'xshashlikni ko'ra olgan muallif, o'quvchini ham shu jozibali dunyoga olib kiradi.

Asarda Alqambarning xotiralari, qalb tug'yonlari, har bir personaj tashqi dunyosidan ko'ra ichki dunyosini ochishga qaratilgan assotsiativ syujetdan foydalanilgan. Muallif bosh qahramon xarakteristikasini tavsiflashda bobosi Yusuf Fidoiy bilan bo'lgan voqealarni

keltiradi. “O‘g‘lim, shuni yodingizdan faromush qilmang, daraxt nafaqat mo‘jiza, balki musiqadir”-deydi, hayrat bilan.

Bobo tepadan quyuq soya tashlab turgan zardoli daraxtiga qaradi va bunday dedi:

— Nabiram, shu jonivor ham qarib hosildan qolyapti. Uni kesib o‘rniga boshqa biror narsa o‘tqazsak qanday bo‘larki yo? O‘spirin darhol javob qaytardi:

— Bobojon, axir o‘zingiz aytgandingiz-ku, bu daraxt tabarruk, katta bobongizdan xotira deb. Zero, shunday ekan, uni kesmaylik.

..... Uning xivichi bilan ustodingiz sizni savalasalar-chi yo? Shunda siz keksa zardoluni la‘natlaysizmi yo? O‘spirin bobosining baroq qoshlari ostidan horg‘in kulib turgan ko‘zlariga qaradi. Cholning o‘smoqchilab so‘rayotgani, bu gaplarning hammasi keksalikka, mehru oqibatga, faqat foyda deb muqaddas narsalarni poymol etmaslikka qaratilganini hamda boshqa ko‘p yashirin ma‘nolar borligini payqadi”. Ushbu parchadan kitobxonda asar qahramoni qanday ekanligi borasida oz bo‘lsada ma‘lumot bo‘ladi va asosiysi uning fikrlari tiniq, idroki o‘tkir, sirli bir holatni tez ilg‘ay oladigan shaxs ekanligini tasavvur etamiz, asosiysi, unga nisbatan ijobiy nazardagi fikr shakllanadi.

Asar tili xalqchil ekanligi voqealar davomida ayon bo‘lib boradi. Alqambar do‘sti Ahmadbek bilan bo‘lgan hujradagi suhbatda “shaytoni rajim qutqu solib o‘zingizni bosolmay turganingizda tirnoq ko‘kiga qarashingiz bilan kulgu taqqa to‘xtaydi” deydi, bu so‘zlar azaldan xalq tilida “amal qilinishi joiz bo‘lgan ish sifatida aytilgan va bajarib kelingan. Boshqa bir o‘rinda Xatibning Boyg‘urob ismli boy inson nomini xutbaga qo‘shib o‘qiganini va uning Boyg‘urob, anta kalban kabi-i-r-o-o! Xutbaga qo‘shib o‘qish balki joizdir, lekin haqorat etish-chiyo» derdi o‘ziga o‘zi. “Boyg‘urob, anta qalban kabiro”, bu — Boyg‘urob, sen katta itsan degani-ku. . Xutba so‘zi - (arab. — targ‘ibot, nutq) — juma namozi oldidan va hayit namozidan keyin xatib (masjid imomi)ning va‘zxonligi, diniy pand-nasihati. O‘rta asrlarda X.ning muhim siyosiy ahamiyati bo‘lgan. Namozxonlar mamlakat hukmdori ismini aytib, uning haqiga duo qilishlari lozim edi. 9-asr 2-yarmidan ayrim hukmdorlar X.da o‘z ismlarini xalifa ismidan keyin qo‘shib aytilishi uchun harakat qilishgan. X.da hukmdor ismining yodga olinishi hukmdorning mustakil ekanligining asosiy tashki belgilaridan biri hisoblangan”. Ayni shu sabab do‘stidan so‘raydi. Bu gap mamlakat podshosining qulog‘iga chalingudek bo‘lsa, boyning o‘ziga yomon. Chunki xutbaga payg‘ambarlar nomidan keyin faqat bir kishining, u ham bo‘lsa, podshohning nomi qo‘shilishi mumkin. Bo‘lak narsa joiz emas. Yoki betakror o‘xshatishlarga duch kelamiz. Allqambar va Fotimabonu suhbatida, oshiq yigitning “Ojiz bir kabutarning o‘limini istaysizmi-yo?” deya o‘zining undan ayrilishini kabutar o‘limiga o‘xshatish orqali badiiy tasvirning ajoyib namunasini yaratgan.

Keyingi voqealar Allqambar yuqorida tilga olingan Boyg‘urob boy darvozasida uning qizini bir bor ko‘rib, oshiq bo‘lishi va go‘zal “Ko‘chabog‘ birinchi kuyining yaralishi asarning kulminatsiyasini hosil qilgan. Shu darvozaga uzoq tikilishi ham do‘stida shubha uyg‘otadi. Shu bir uchrashuv ta‘sirida qahramon butunlay o‘zini unutadi xayolan nimalarnidir hirgoya qiladi, gapiradi. Bu safar do‘sti ham uni izlab to‘g‘ri boy darvozasidan topadi. “Bobom Mulla Yusufning aytishlaricha, bizning yetti pushtimiz ayol zotiga beqiyos hurmat bilan qaragan. Biz ayolni Bibimariyadek ulug‘laganmiz... Sizni ham shunday... bir kun kelib mening g‘arib kulbamni quyoshdek charog‘on qilarmikansiz! Sizga atab olamda tengsiz bir kuy yaratardim. Shunday kuyki!” Uning hayollari natijasida kuy yaraldi, u shunday jozibaliki, chinakam ishq nafasini his etadi tinglagan kishi.

Asar shunday yakun topadi: “[So‘ngra ko‘ksini, ko‘kraging yurak zarbidan zirqirab turgan bo‘lagini daraxt tanasiga mahkam bosdi. Shunda beqiyos mo‘jiza yuz berdi. Daraxt vujudidagi titroqlar bilan inson yuragining zarbalari qo‘shilib ketdi... Ilk tilga olingan daraxt, yakunida ham Allqambarga hamroh bo‘ldi. Ikki jon titrog‘idan u orzu qilgan kuy yaraldi.

Ne‘mat Arslon yaratgan ikki asar ham “Qulfbuzar” va “Bir yigitning hayoti yoxud kuyning tug‘ilishi” asarlari har qachon o‘qiladigan, o‘qilishi kerak bo‘lgan asarlar. Asarning ko‘p

syujetli ekanligi, voqealar ketma-ketligida kishini o'ylovga chorlovchi timsollarga boyligi muallif yutug'i. Ma'rifat, diniy qarashlarga yo'g'rilgan, insoniylikning yorqin dalili bo'lgan ikki asar shunchaki hikoya qilinmaydi, sirli jumboqni sizga tashlaydi-yu, uning yechimiga qiziqib beixtiyor asar dunyosiga kirib qolasiz. Ikkisida ham chuqur falsafiy ruh mujassamlashgan. Ijodkorning iste'dodi ushbu ikki asarda ham hayot materiali – dispozitsiyani, badiiy asar – kompozitsiya holiga aylantirib bera olganida. Asarning hikoya qilinish davri retrospektiv vaqt, hikoya qilinayotgan badiiy vaqt bilan bir vaqtda sodir bo'lishi, ushbu ikki asarda ham ijtimoiy dardning to'laonli yoritilishi bu asarning har qachon o'qilishi kerak eknaligidan dalolat. "Asl badiiy asar odamning ruhiyati, tabiati va ma'naviyatida ma'lum yangilanish, evrilish sodir qiladi".[8. Qozoqboy Yo'ldosh. Badiiy tahlil asoslari, 17-bet].

### Adabiyotlar ro'yxati:

1. Чўлпон. Адабиёт надур. Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1994. – 144 б.
2. [www.Xurshid](http://www.Xurshid) Davron kutubxonasi
3. Қўшжонов М. Моҳият ва бадиият. Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1977. – 232 б.
4. Гегел. Эстетика. "Шарқ юлдузи". 2014. 1-2 сонлар.
5. [www.kh-davron.uz](http://www.kh-davron.uz) Ne'mat Arslon hikoyalari.
6. [www.kh-davron.uz](http://www.kh-davron.uz). F. Karomatov "Maqom haqida".
7. [www.uz.wikipedia.org](http://www.uz.wikipedia.org).
8. Ёўлдош Қ., Ёўлдош М. Бадиий таҳлил асослари. – Т.: Камалак, 2016. – 464 б.